

# Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


15 dekabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish  
departamenti

# SQB va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-15 dekabr Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

## SQB va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,867% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,820% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,392% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- 2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,5% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,492% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,519% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,447% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,388% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,171-8,878% gacha o'zgarib turdi.


# SOFR va Euribor

## AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

### SOFR dinamikasi




### Euribor dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,66-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,95% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 3,66% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,082% (3 oylik) va 2,170% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




## O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **849,8** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **12,3** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 003** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **12 097** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **6,25%** ni tashkil etdi.

## Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




**15.12.2025** yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Tenge bank**da qayd etilgan – **12 110** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 130–12 190** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Hamkorbank**da qayd etilgan – **12 090** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 085 – 12 040** so'm atrofida bo'lgan.


## USD-RUB dinamikasi



- **USD/RUB 80 darajasi atrofida mustahkamlanmoqda**

USD/RUB kursi o'sishda davom etmoqda: 8–12 dekabr kunlari oralig'ida dollar kursi 76,9 rubldan 80 rublgacha ko'tarildi. Ushbu harakat barqaror ko'rinishga ega bo'lib, eksport tushumlarining kamayishi, import hajmining mavsumiy oshishi hamda xomashyo bozoridagi bosim fonida xorijiy valyutaga bo'lgan talab saqlanib qolayotganini aks ettiradi. 80 rubl darajasi muhim psixologik chegara bo'lib qolmoqda. Agar kurs ushbu darajadan yuqorida mustahkamlanib qolsa, 81–82 diapazoniga harakatlanish xavflari kuchayadi. Shu bilan birga, qisqa muddatli tuzatish 78,5–79 darajalarigacha bo'lishi mumkin, biroq tashqi muhit yaxshilanmas ekan, rublning zaiflashuvi asosiy ssenariy bo'lib qolmoqda. Joriy dinamika qisqa muddatli istiqbolda rublga bosim saqlanib qolayotganini va devalvatsiya xatarlari ustun ekanini ko'rsatmoqda.


## RUB-YUAN dinamikasi



- **RUB/CNY kursi o'smoqda: 1 yuan 11 rubl darajasiga yetdi**

8–12 dekabr kunlari oralig'ida RUB/CNY kursi 1 yuan uchun 10,5 rubldan 11,1 rublgacha oshdi. Bu holat rublga bo'lgan bosim hamda yuanning mustahkamlanishi fonida kuzatildi. Harakat barqaror xarakterga ega bo'lib, eksport tushumlarining zaifligi va valyutaga bo'lgan talabning mavsumiy oshishini aks ettirmoqda. 11 rubl darajasi muhim psixologik chegara sifatida shakllandi. Ushbu darajadan yuqorida mustahkamlanish 11,2–11,3 diapazonigacha o'sishga olib kelishi mumkin, qo'llab-quvvatlash darajalari esa 10,8–10,9 atrofida joylashgan. Rubl bosim ostida qolmoqda, asosiy ssenariy — kursning joriy darajalar atrofida ushlanib turishi, shu bilan birga yuanning yanada mustahkamlanish xavfi saqlanib qolmoqda.

## EUR-USD dinamikasi




- **EUR/USD juftligi mo'tadil o'sishni namoyish etmoqda**

8–12 dekabr kunlari davomida EUR/USD valyuta juftligi 1,1671 darajadan 1,1749 gacha ko'tarilib, yevroning dollarga nisbatan mo'tadil mustahkamlanishini ko'rsatdi. Harakat izchil xarakterga ega bo'lib, AQSh Federal rezerv tizimining foiz stavkasini pasaytirish haqidagi qaroridan so'ng dollarning zaiflashuvi hamda yevrozonadagi iqtisodiy kutilmalarning barqarorlashuvi fonida yevroga bo'lgan o'rtacha talab uyg'unligini aks ettiradi. Texnik jihatdan 1,1750 darajasi muhim qarshilik sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu darajadan yuqorida mustahkamlanish 1,18 darajasiga yo'l ochishi mumkin. Qo'llab-quvvatlash zonasi 1,1700–1,1720 oralig'ida joylashgan. Umuman olganda, yevro dollarga nisbatan mo'tadil mustahkamlanishni saqlab qolmoqda. Asosiy ssenariy kursning joriy darajalar atrofida qolishini, AQSh tomondan salbiy omillar kuzatilmagan taqdirda esa 1,18 gacha o'sish ehtimolini nazarda tutadi.

# Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi  
(bir untsiya uchun,  
AQSh dollarida)



## ➤ Oltin narxlarini keskin oshdi

AQSh Federal rezerv tizimi foiz stavkasini 0,25 foiz punktga pasaytirib, kelgusidagi pul-kredit siyosati bo'yicha "yumshoq" (dovish) signallar berganidan so'ng oltin narxlarini keskin ko'tarildi. Dollarning zaiflashuvi va qisqa muddatli obligatsiyalar daromadlilikining pasayishi oltinni investorlar uchun yanada jozibador qildi va natijada uning narxi bir untsiya uchun 4300 dollardan yuqoriga ko'tarildi. Shuningdek, FRTning qisqa muddatli AQSh g'aznachilik obligatsiyalarini sotib olishni boshlash haqidagi qarori bozordagi likvidlikni oshirib, oltin narxlariga qo'shimcha turtki berdi. Regulyator yaqin kelajakda foiz stavkalarini oshirish ehtimoli past ekanini ta'kidlab, endilikda iqtisodiyot va mehnat bozorini qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor qaratilishini bildirdi.


Brent nefti narxlarini dinamikasi  
(bir barrel uchun,  
AQSh dollarida)



## ➤ Neft narxlarini bosqichma-bosqich oshmoqda

Neft narxlarini keskin pasayishdan so'ng barqarorlashdi, bozor ishtirokchilari esa Ukraina bo'yicha tinchlik muzokaralari natijalari hamda AQSh Federal rezerv tizimining foiz stavkasi bo'yicha qarorini kutmoqda. Muzokaralarda har qanday ijobiy siljish Rossiya neftining bozorga qaytishi ehtimoli tufayli narxlarning pasayishiga olib kelishi mumkin, ularning muvaffaqiyatsiz yakunlanishi esa, aksincha, kotirovkalar o'sishini qo'llab-quvvatlaydi. Neft bozoriga qo'shimcha bosim Iroqdagi yirik konlardan birida qazib olish hajmining tiklanishi bilan bog'liq bo'ldi. O'rta muddatli istiqbolda tahlilchilar 2026 yilda taklifning ortib ketishini va narxlarga bosim kuchayishini kutishmoqda. Biroq 2026 yil oxiriga kelib AQShda qazib olish hajmining qisqarishi va barqaror talab fonida narxlarning yana o'sishi ehtimoli mavjud.

Динамика цен на газ ТТФ,  
(за мегаватт-час в долл.)



## ➤ Neft bosim ostida

Brent markali neft haftaning boshidan buyon 3,7 foizga pasaydi. Bunga Rossiya neftiga oid geosiyosiy xatarlarning kamayishi hamda AQShda talabning sustligi sabab bo'ldi, buni EIA ma'lumotlariga ko'ra yoqilg'i zaxiralarning oshgani ham tasdiqlamoqda. 2026 yilga mo'ljallangan profitsit prognozlarini biroz yumshatilganiga qaramay, bozor hanzu taklif ortiqchaligini kutmoqda, bu esa narxlarga bosimni saqlab qolmoqda. Qo'shimcha noaniqlik omili sifatida AQSh harakatlari fonida Venesueladan yetkazib berish bo'yicha xatarlar paydo bo'ldi. Biroq Venesuela qazib olish hajmining ehtimoliy qisqarishi ham OPEK+ tomonidan qoplanishi mumkin. Umuman olganda, neft bo'yicha o'rta muddatli prognoz salbiyligicha qolmoqda, biroq qisqa muddatli istiqbolda ikki oylik minimumlar yangilangandan so'ng texnik qaytish ehtimoli mavjud.

# Yangiliklar

## Deutsche Bank korporativ mijozlar uchun AI-Advisor platformasini ishga tushirdi

Deutsche Bank korporativ mijozlar uchun AI-Advisor platformasini ishga tushirdi. U avtomatik tarzda moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qiladi va xarajatlarni optimallashtirish strategiyalarini taklif qiladi. Bu bank sektorida samaradorlikni oshirish maqsadida sun'iy intellektni faol joriy etilayotganini ko'rsatadi.

## Germaniyaning raqamli banki N26 BaFin'dan yangi talablar oldi

Germaniyaning raqamli banki N26 mamlakat moliyaviy regulyatori — BaFin tomonidan kapital bo'yicha yangi talablar hamda ipoteka kreditlarini berishga vaqtinchalik taqiq bilan yuzlashdi. Regulyator mijozlar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni oshirish maqsadida neobanklar ustidan nazoratni kuchaytirdi.

## Barclays United Fintech'ga strategik investor sifatida qo'shildi

Barclays United Fintech'ga strategik investor bo'lib kirib, banklar va fintech-ekotizimlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi. Bu butun dunyo bo'ylab bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasini tezlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

## OTP Bank prezidenti Ilya Chijevskiy 2025 yilning eng yaxshi bank menejeri deb topildi

OTP Bank prezidenti Ilya Chijevskiy bankda amalga oshirilgan raqamli va operatsion transformatsiyalardagi muhim yutuqlari uchun Retail Finance Awards mukofoti doirasida 2025 yilning eng yaxshi bank menejeri deb e'tirof etildi.

